

Keyingi o'rinlarda "Buyurmachi" deb yuritiladigan "Suv ta'minoti va oqova suv obyektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi" UK Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi nomidan Nizom va 2022 yil 19 sentabrdagi 29-sonli ishonchoma asosida faoliyat ko'rsatuvchi hududiy boshqarma boshlig'i v.b S.Ziyadullayev bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan "Ishixon Duradgor" oilaviy korxonasi nomidan Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi taxbari M.Tovboyev ikkinchi tomondan Ishixon tumani, "Damarig" MFY, Damarig qishlog'i hududida ichimlik suv tizimlarini qurish obyekti bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

Iyroi hujjatlari - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarini bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomondan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqdigi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda obyekt (qurish, gayta qurish va mukammal) ta'miriga ishchi chizmalar turkumi, yer ishlarida tegishli tashkilotlardan xulosalar, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrada qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, qurilish-montaj ishlarini bajarilishini yuritish daftrarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

qurilish maydoni - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarini bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurmachi tomondan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Obyektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

vag'inchalik inshootlar - Pudratchi tomondan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

berkitiladigan ishlar - sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnoma narxini bo'lib chiqish - ishlarining har bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha obyektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI

2. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha obyektida qurilish ishlarini loyiha-smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan holda bajarish va tasdiqlangan loyiha hujjatlariga o'zbo'shimchalik bilan o'zgartirishlar kiritmaslik majburiyatini oladi, Buyurmachi esa Pudratchiga bajariladigan ishlar uchun zarur sharoitlar yaratish, bajarilgan ishlarini qabul qilish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

3. Mazkur shartnoma "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonun talablari va 2022 yil 31 yanvardagi 46-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan tanlov savdosini o'tkazish to'g'risidagi e'lon etender.uzex.uz maxsus axborot portalining yakuniy baholash natijalari (2022 yil «09» noyabrda Lot 22110012174990 bayoni) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati ushbu

obyekt to'laqonligiga foydalanishga topshirilishida QQS'lari bilan 1 519 105 780 (Bir milliard besh yuz o'n to'qqiz million bir yuz besh ming yetti yuz sakson) so'mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

obyektning qayta qurish ishlari qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

5. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaning un foizidan oshmagun xolda va ushbu uzgarishlarga belgilangan tartibda smeta-xujjatlari tayyorlangan xolda rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

6. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

Obyektidagi qurilish ishlari boshlanishdan oldin obyektida qurilish ishlarni olib borish davri uchun, buyurtmachi ishtirokida qurilish qilina yotgan bino va yoki inshoot qismini va undagi mavjud elementlarni dalolatnoma asosida obyektidan foydalanuvchi tashkilotdan qabul qilib oladi va ta'mirlash ishlari yakunlangandan so'ng foydalanuvchi tashkilotga topshiradi. Pudratchi tomonidan qurilish ishlari olib borilayotgan davrda ushbu bino va/yoki inshoot qisimidagi elementlarni saqlash ishlarni amalga oshiradi;

Ushbu qurilish obyektini qurish davrida elektr energiyasi, suv va tabiiy gazdan foydalanish zaruriyati bulgan taqdirda belgilangan tartibda tegishli tashkilotlar bilan shartnoma tuzish, tulovlarni amalga oshirish, zarur xollarda ayrim ish turlarining bajarilishida loyiha-smeta hujjatlarda belgilangan mashina-mexanizmlar o'rninga, o'rindosh mashina-mexanizmlardan foydalanilishi, belgilangan sifat va texnologik jarayonning buzilmasligini ko'rsatuvchi sifat laboratoriyasi va loyihachi tashkilotning tegishli xulosasi asosida amalga oshirilishi mumkin, xar qanday ish turidagi ushbu uzgarishlar yuzasidan Buyurtmachi xabar qilib;

Loyiha-smeta hujjatlarda bajarilishi ko'zda tutilgan ish hajmlari Pudratchi tomonidan to'liq va sifatli qilib bajarilib, ayrim ish hajmlari va xarajatlar smeta hujjatlarda ko'zda tutilgan mablag'lardan amalda iqtisod qilinsa, ushbu mablag'ni ayrim xarajalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararni va qo'shimcha bajarilishi lozim bo'lgan ish hajmlari xarajalarini qoplash uchun obyektning umumiy qiymati doirasida asoslovchi hujjatlar asosida Buyurtmachi xabar qilib holda yo'naltirishi mumkin va ushbu ish turlari tender ish xajmlarida bulsa narxlar tender narxlarida olinishi, agarda tenderda bulmasa smeta-xujjatlardagi narxlarida olinib xisob-fakturasida kursatilishi lozim.

obyektning i'ro xujjatlarni rasmiylashtirish va buyurtmachi topshirish, qurilish materiallarining muvofiqlik sertifikatini, ishlatilgan qurilish materiallari va uskunalarning texnik pasportini taqdim etadi;

shartnoma shartlariga asosan obyektini buyurtmachi tasdiqlangan loyihaga muvofiq topshiradi;

barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda uning I-ilovasida belgilangan ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajm va muddatlarda, o'zining kuchlari bilan qurilish goidalari va meyorlariga, belgilangan standartlarga amal qilgan holda sifatli bajarish, ishni Buyurtmachi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi hamda ajratilgan mablag' doirasida qurilish-montaj va ta'mirlash ishlarni bajaradi;

obyektga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, boshqa xom-ashyolar va qurilish texnikasini o'z vaqtida hamda zarur xajmlarda yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni amalga oshiradi;

zarur xollarda qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar quradi;

Buyurtmachi, yordamchi pudratchi bilan pudrat shartnomalari tuzilishi davomida, ushbu shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, yordamchi pudratchi nomi va manzili to'g'risida xabar qiladi;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'rtazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlaydi; mazkur shartnoma bo'yicha obyektini foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatadi; qurilish maydoni go'riqlanishini ta'minlaydi; Oyama-oy yoki bir oy davomida bajarilgan qurilish-montaj ishlari yuzasidan monitoring xolatda xisob-fakturasini o'zining 25 sanasigacha Buyurtmachi taqdim qiladi; Obyektida qurilish-montaj ishlari tuliq tugatilgandan keyin bajarilgan qurilish-montaj ishlari yuzasidan xisob-fakturani to'liq taqdim qiladi; mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

7. Pudarachi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan zarur tarzda bajarilishi hamda obyektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi. Bajarilgan va moliyalashtirish uchun qabul qilingan ish hajmlarida arifmetik xato va boshqa kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlanganda, keyingi oylarda bajarilgan ish hajmlari tegishli o'zgartirishlar (korrektyovka) kiritilgan holda rasmiylashtiriladi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

8. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi: Ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxivtekura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudarachi tomonidan qabul qilingan majburiyatlarni va boshqa funksiyalariga rioya etilishini nazorat qilish, Pudarachidan tugallangan ishlarni, amaldagi qonunchilik xujjatlarga muvofiq ravishda qabul qilib olishni ta'minlash; Pudarachining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish; moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudarachiga 2-ilovaga muvofiq avans berish va joriy mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 20 kun davomida Pudarachiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlarni taqdim etish; mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

9. Pudarachi mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi. 10. Pudarachi obyektida qurilish-montaj ishlarni 151 kun muddatda tugatib, obyektning sifatli va to'liq qilib (tegishli barcha hujjatlar bilan birga) foydalanishga topshiradi. Moliyalashtirish yoki Buyurtmachi tegishli boshqa sabablardan tashqari Davlat dasturlarini ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha Samarqand viloyat hududiy shtabining katoriga asosan qurilish muddatiga uzgartirishlar kiritilishi mumkin. Ishlarning bajarilishi ochilgan kundan boshlab 151 kun etib belgilanadi. Pudarachi shartnomasi amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabr. 11. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

12. Buyurtmachi tomonidan Pudarachiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun ishlarni bajarish (1-ilova) va moliyalashtirish (2-ilova) jadvallari asos hisoblanadi. 12.1 Pudarachi tomonidan ushbu obyekt bo'yicha bajariladigan ishlar qiymati QQS-lari bilan 1 519 105 780 (Bir milliard besh yuz o'n to'rtz million bir yuz besh ming yetti yuz sakson) so'm, shu jumladan, 2022 yil uchun limit 1 443 151 000 (Bir milliard to'rt yuz qirg'uch million bir yuz ellik bir ming) so'mni tashkil etadi.

Buyurtmachi Pudratchi shartnoma bo'yicha joriy (rejalashtirilgan) yilning ish qiymatining 15 foiz miqdorida ikki oyga teng ulushda (30%) avans mablag'i tula beradi. Bu 455 731 734 (To'rt yuz ellik besh million yetti yuz o'ttiz bir ming yetti yuz o'ttiz to'rt) so'mni tashkil etadi.

13. Buyurtmachi va Pudratchi har oyda bajarilgan qurilish-montaj ishlarini "Ma'lumotnoma-hisob-faktura" bilan rasmiylashtiriladi, bunda ishlarining konstruktiv elementlari (turlari) bo'yicha fizik va qiymat ko'rsatkichlari 1-ilovaga asosan aks ettiriladi va "Investor" tomonidan mablag ajratilgandan so'ng 2-ilovaga asosan moliyalashtiriladi.

14. Joriy moliyalashtirish ajratilgan avans mablag'ining har oyda amalda bajariladigan ishlar miqdoridan berilgan avans mikkdorini ushlab qolib, obyektning shartnomaviy qiymati 65 foiz miqdorda amalg oshiriladi.

15. Pudratchi obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha obyektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchi zimmasida bo'ladi.

16. Obyektning shartnomaviy bajarilgan ishlar kiymatidan 5 foiz miqdoridagi mablag' mazkur shartnomada belgilangan kafolat muddati (foydalanishga qabul qilish to'g'risidagi handa tegishli tashkilotlar tomonidan nazorat o'ichovidan o'kazilganlik to'g'risidagi handa shuningdek, obyektga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlar rasmiylashtirilib taqdim etilganda) tugagandan so'ng, lekin kafolat muddati tugagan moliyaviy yil yakunlanmasdan oldin moliyalashtiriladi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarini shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 30 kun mobaynida bajarilmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachi yozma ravishda xabarador qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritishni talab qilish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH

18. Buyurtmachi obyektida o'z vakilini - texnik nazoratchini tayinlaydi, u Buyurtmachi tomonidan bajarilayotgan ishlar hajmi va sifati ustidan texnik nazorati amalga oshiradi, shuningdek ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

19. Texnik kuzatuvchi ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarining barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

20. Pudratchi texnik kuzatuvchini ishlar uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik kuzatuvchi Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan, ta'mirlash obyektida ishlarini amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda gatashtadi.

21. Pudratchi obyektida bajarilgan hajmlarini jiro hujjatlarini, qilingan sarta-xarajatlarni Buyurtmachi tomonidan mazkur obyekt uchun birtiktirilgan texnik kuzatuvchi bilan har oyning 20 kuni dan 25 kuni gacha obyektning o'zida ko'rib chiqadi va to'liq ma'lumotni (belgilangan shakllarda jiro hujjatlar bilan) oyning 28 kuni gacha qadar bajarilgan ishlar xisobotini buyurtmachi tashkilotga topshiradi.

22. Pudratchi ishlarini bajarish loyhasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasini va jadvaliga binoan obyektida ishlarini bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

23. Pudratchi obyektida ishlarini olib borish tartibini Davlat arxivtekura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

24. Obyektida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchi vazifasi hisoblanadi.

25. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarini bajarish va obyektini privyazka qilish uchun Pudratchi gaeodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

26. Pudratchi gaeodeziya nuqtalariga, liniyalari va darajalarga nisbatan obyektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilarini, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligini to'g'ri joylashganligini uchun javob beradi.

27. Agar ishlarini bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudaratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi. 28. Pudaratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarini bajarish davrida va ular tugallangan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiiga beradi.
29. Qurilish maydonida ishlarini bajarish davrida kommunikatorlarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatorlarni ulashni Pudaratchi amalga oshiradi.
30. Pudaratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifatida hujjatlarida ko'rsatilgan sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlar, texnik shartlar va muvofiq bo'lishni hamda ularning bo'lishini kafolatlaydi.
31. Alohida mas'uliyati konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin Pudaratchi Buyurtmachi va qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiya yozma ravishda xabar beradi.
32. Yopilib ketadigan ishlarini ularning har bir turi (bosqich) ishlarini boshlangunga qadar bajarilishiga qarab amalga oshiriladi. Ishlarini quyidagi tarkibidagi komissiya qabul qilib oladi: Buyurtmachi va texnik nazoratchi (rais), pudaratchi tashkilot vakili - ish bajaruvchi yoki usta, laborant va geodezist (zarur hollarda), obyektga xizmat ko'rsatadigan yuqori tashkilot vakili, loyihaga tashkilot vakili (ko'tarib turuvchi konstruksiyalarni qabul qilib olishda). Yopilib ketadigan ishlarini qabul qilib olish natijalari o'rnatilgan shakl bo'yicha dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, unda qabul qilinadigan ishlarining loyiha, normativ-texnik hujjatlar, standartlar talablariga muvofiqlik darajasi aks ettiriladi, shuningdek qabul qilinadigan ishlariga baho va ishlarining keyingi turini bajarishga ruxsat beriladi. Dalolatnoma o'chovlar qaydnomasi va laboratoriya sinovlari natijalari ilova qilinadi.
33. Pudaratchi Buyurtmachi qurilish-montaj ishlarini bajarilishini yuritish daftralariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarini bajarishga kirishadi.
34. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachi tasdiqlashga kirishadi, u bu haqda xabar beradi va qabul qilinadigan ishlar, yoki kechikib xabar berilgan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudaratchi Buyurtmachi muvofiq berkitiladigan ishlarining istalgan qismini o'z hisobidan o'chishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.
- Pudaratchi Buyurtmachi manfaatlarga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chega chiqishlarni Buyurtmachi roziligi bilan amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga va qiymatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.
- Obyektga qurilish jarayonida texnologik jarayon olib borilishining to'g'riligi, bajariladigan ishlar hamda foydalaniadigan materiallarning sifatini yuzasidan texnik nazoratni amalga oshirish, shuningdek yopilib ketadigan va oraliq ishlarini qabul qilib olishda Buyurtmachi tomonidan komissiya tarkibida ishtirok etish uchun ushbu obyektga foydalalanuvchi tashkiloti jalb etilishi mumkin.
- Obyektning bajarilgan ishlarini va tugallangan obyektlarini oylik (oraliq) qabul qilib olish buyurtmachi va pudaratchi tomonidan rasmiylashtiriladi. Bajarilgan ishlarini oylik (oraliq) qabul qilib olish natijalari belgilangan shaklda ma'lumotnoma-hisob-faktura bilan, miqdor va qiymat ko'rsatkichlari hisob-kitob jadvalida aks ettirilgan holda belgilangan shaklda rasmiylashtiriladi.
35. Agar Buyurtmachi Pudaratchi va (yoki) uning yordamchi pudaratchilari tomonidan ishlarining sifatini bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudaratchi o'z kuchlari va mablag'lari hisobidan ushbu ishlarini ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.
36. Pudaratchi qurilish maydonini va unga tutash uchastkalari va yo'laklarni supuriy-sidiradi va ozoda saqlaydi.
37. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanganigacha Pudaratchi qurilish-montaj ishlarini bajarilishini yuritish daftrani yuritadi. Daftrada butun ishlarining borishi, Buyurtmachi va Pudaratchining o'zaro munosabatlarida ahmiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarining boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, ishlarining qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, kumlik

o'rtacha havo harorati va yog'ingarchiliklar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchi qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftari o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. ISHLARNI QO'RQLASH

38. Pudratchi ta'mirlash ishlari boshlanishidan tugallanguncha va qayta qurish ishlari tugallangan obyekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

X. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

39. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-majior) holatlari - bu tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat xodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy xolalar (urush xolati, g'amal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksporti taqviqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarini bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan xolatlardir.

40. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bundan qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

41. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun ganday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

42. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. QURILISH ISHLARI TUGALLANGAN OBYEKTNI QABUL QILIB OLISH

43. Qurilish ishlari tugallangan obyektning qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq, mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilish tugallangan obyektlarini foydalanishga qabul qilib olish shaharsozlik normalari, qoidalari va standartlariga asosan amalga oshiriladi.

Qurilish obyektini yoki uning uchastkalari (ishga tushirish majmualari) obyektning tugallanganligi va u qabul qilib olishga tayyorligi to'g'risida pudratchi tashkilotning xabarnomasidan keyin ishchi komissiya tomonidan foydalanishga qabul qilinadi.

Pudratchi tashkilot ishchi komissiyaga quyidagi xujjatlarni taqdim etadi:

- qurilish-montaj ishlarni amalga oshirishda ishtirok etgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan ishlarning turlari va hajmlari hamda mas'ul ijtirochilari ko'rsatilgan holdagi ro'yxati;

- qabul qilishga taqdim etilgan obyektning texnik loyihasi va ishchi chizmalari to'plami, ijtiro sxemalari;

- yopilib ketadigan ishlarni qabul qilib olish dalolatnomalari;

- ishlarni bajarish va mualliflik nazoratini jurnalari;

XIII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

51. Buyurtmachi: shartnoma kuchga kirgandan keyin ishlarning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablariga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda; ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda; bajarilgan qurilish-montaj ishlariga bajarilganligi yuzasidan xisob-fakturasini rasmiylashtirib bir oy ichida topshtirilmagan xolda; Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish meyorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarining sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.
52. Pudratchi: ishlarining bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablariga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda; Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.
53. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan ta'mirlash 15 kun muddatda Buyurtmachi berialdi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.
54. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.
55. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.
56. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIV. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

57. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi; O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi. Qayta qurish ishlarini olib borayotgan Pudratchi tashkilot g'omunchilikka asosan va shartnomaga muvofiq buyurtmachi oldida quyidagi ishlar bo'yicha mulkiy javobgardir: sifatsiz bajarilgan qurilish-montaj ishlar; obyektning hamda uning bosqichlari va navbatlarini belgilangan muddatda tugallamagan; buyurtmachi bilan tuzilgan shartnoma asosida qurilish-montaj va boshqa iqtisodlashtirilgan tashkilotlar tomonidan uskunalarni montaj qilish muddatlarini buzilishi; obyektning loyixasmeta xujjatlarida belgilangan yerlarni rekultivatsiya qilish ishlarini bajarish hajmlari va muddatlarining buzilishi; qayta qurish jarayonida yoki oralig' qabul qilishda pudratchi, mualliflik nazorat va boshqa nazorat organlari tomonidan aniqlangan konstruksiya va ishlaridagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar va nuqsonlarni bartaraf etishni o'z ichiga olgan shartnomada ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarini bajarmagan yoki to'la-qonli bajarmagan. Pudratchi tashkilot tomonidan ishlarining bajarilishida pudrat shartnomasidan chekinish yoki boshqa kamchiliklar mavjudligida Buyurtmachi, agar g'omunchilik yoki shartnomada boshqa shartlar ko'zda tutilmagan taqdirda, pudratchi tashkilotdan o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilarni talab qilish huquqiga ega: nuqsonlarni oqilona muddatlarda o'z hisobidan bartaraf etishni;

- Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish dalolatnomalari.

44. Obyektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudaratchining yozma bildirishnomasi asosida Buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilib olinadi.

45. Pudaratchi qayta qurish tugallangan obyektni qabul qilib olish bo'shlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudaratchi Buyurtmachi ushbu hujjatlar to'plamida amalda bajarilgan ishlar to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

46. Qabul qilib olingan paytdan boshlab obyekti davlat mulkiga aylanadi va o'rnatilgan tartibda obyektlardan foydalanish korxonasi balansiga o'tadi.

XII. KAFOLATLAR

47. Pudaratchi:
barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;
loyiha-smeta hujjatlariga hamda qurilish meyorlari, qoidalar va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarini sifatli bajarishini;

o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyihaga muvofiq qurilish sertifikatatsiyalariga, davlat standartlariga hamda texnik shartlariga muvofiq qurilishni;

loyiha-smeta hujjatlarida bajarilishi ko'zda tutilgan ish hajmlari Pudaratchi tomonidan to'liq va sifatli qilib bajarilib, ayrim ish hajmlari va xarajatlar smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan mablag'lardan amalda iqtisod qilinsa, ushbu mablag'ni ayrim xarajatlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararni va qo'shimcha bajarilishi lozim bo'lgan ish hajmlari xarajatlarni qoplash uchun obyektning umumiy qiymati doirasida asoslovchi hujjatlar asosida Buyurtmachini xabarдор qilgan holda yo'naltirishi mumkin va ushbu ish turlariga smeta-xujjatlarni tayyorlatish;

shartnomada belgilangan kafolat muddati mobaynida obyektdan foydalanish jarayonida nusxonalar va chala qilingan ishlar aniqlanganda, o'z hisobidan bepul bartaraf etishni;

obyektdan foydalanilgan muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiq qurilishni kafolatlaydi.

48. Obyekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarining kafolatli muddati tomonlar qayta qurish tugallangan obyektni qabul qilish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab 18 oy etib belgilanadi.

49. Agar obyektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nusxonalar aniqlansa, u holda kafolat muddati nusxonalarini bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nusxonalar Pudaratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mayjud nusxonalar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudaratchi va Buyurtmaching ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudaratchi bajarilgan ishlaridagi nusxonalar va chala ishlarini, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudaratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

50. Pudaratchi nusxonalar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish qurilish sohasida hududiy nazorat qilish organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

Agar Pudarachi tashkilot nuqsonlarni kelishilgan muddatlarda bartaraf etilmasa, Buyurtmachi yoki obyektidan foydalanuvchi tashkilot o'z kuchi bilan Pudarachi xisobidan nuqsonlarni bartaraf etish hamda nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etilganligidan keltirilgan zararni va bajarilgan ish qiymatini undirish xuquqiga ega.

58. Mazkur shartnomaga tegishli lovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilimganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachi Pudarachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi moliyalashtirilimgan mablag' qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachi shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

Moliyalashtirishning kechikishi "Investor" ning aybi bilan sodir etilsa, moliyalashtirish bo'yicha "Buyurtmachi" "Pudarachi" ning oldida javobgar bo'lmaydi.

59. Pudarachi tomonidan obyektini o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha majburiyatlar buzilgan bo'lsa Pudarachi Buyurtmachi muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarini bajarilmagan qismining 0,2 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmaganligi uchun Pudarachi Buyurtmachi muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,2 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudarachini ishlarini bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

60. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish meyorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiya xulosasi asosida obyektini qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudarachidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

61. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur badda nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan.

xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalangan penya bilan qoplamagan zararlarni qoplaydi.

Buyurtmachi Pudarachining bajarilgan ishlarini hajmidan yoki moliyaviy hisob-kitoblardan aniqlangan kamchiliklar natijasida Buyurtmachi qaytariladigan mablag'lar va boshqa to'lovlar bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarimasa, Buyurtmachi ushbu mablag'larini moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan chegitirib qolish huquqiga ega.

62. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarining boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

XV. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

63. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Samarqand shaxar iktisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVII. ALOHIDA SHARTLAR

64. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

Ishnixon tumani, "Damarig" MFY, Damarig qishlog'i hududida ichimlik suv tizimlarini qurish obyektining
MOLIYALASHTIRISH JADVALI

2022 yilda bajariladigan ishlar qiymati: QQS bilan: 1 519 105 780 (Bir milliard besh yuz o'n to'qqiz million bir yuz besh ming yetti yuz sakkon) so'm

Moliyalashtirish shartlari	Ishlar qiymati	2022 yil		2023 yil
		noyabr	dekabr	
30% аванс маблаг	455 731 734	227 865 867	227 865 867	
65 % bajarilgan ish uchun to'lov	987 418 757		987 418 757	
5 % kafolat summasi	75 955 289			75 955 289
Jami:	1 519 105 780	227 865 867	1 215 284 624	75 955 289

"BUYURTMACHI"

"O'zsuvt'a'minot" Ad "Suv" ta'minoti va ogava suv obyektlari
qurilish bo'yicha inqiniyng kompaniyasi" UK Samarqand viloyat
hududiy boshqarmasi boshlig'i

S. Ziyadullayev

"BOSH PUDRATCHI"

"Ishnixon Duradgor" oilaviy korxonona

direktori

M. Tovboyev



2022 yil ___ noyabrda 37/22-sonli
shartnomaga 1-ilova

Ishtixon tumani, "Damarig" MFY, Damarig qishlog'i hududida ichimlik suv tizimlarini qurish obyektining

BAJARISH JADVALI

2022 yilda bajariladigan ishlar qiymati: QQS bilan: 1 519 105 780 (Bir milliard besh yuz o'n to'qqiz million bir yuz besh ming yetti yuz sakson) so'm

Amalga oshiriladigan ishlar	Ishlar qiymati	2022 yil	
		noyabr	dekabr
Obyekt uchun jami	1 519 105 780,0	227 865 867,0	1 291 239 913,0
Shu jumladan:			
Qurilish-montaj ishlari uchun	1 519 105 780,0	227 865 867,0	1 291 239 913,0

"BUYURTMACHI"

"BOSH PUDRATCHI"

"Suv ta'minoti va ogava suv obyektlari qurilish
bo'yicha injenering kompaniyasi" UK
Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i

"Ishtixon Duradgor" oliaviy korxonada
direktori

S. Ziyadullayev

M. Tovboyev



Директор УП "Инжиниринговая компания по строительству объектов водоснабжения и канализации" АО «Узэвтаъминот» Рес. Уз.
Х.Алқубов



ТИТУЛЫЙ СПИСОК СТРОЙКИ

Раздел I. Основные данные по строике

1. Наименование и местонахождение строики	Иштихон тумани, "Дамарик" МФИ, Дамарик кishiлоти худудида ичимлик суя тизимларини куриш объекти		
---	---	--	--

2. Отрасль	Коммунальное хозяйство		
3. Инвестор	Фонд «Развития систем водоснабжения и канализации» при Минфине Рз		
4. Заказчик	АО «Узэвтаъминот» Рес. Уз, УП «Инжиниринговая компания по строительству объектов водоснабжения и канализации» МЧЖ		
5. Работочники: 5.1. ТЭО	Иметса		
5.2. ПСД и/или ТД	№ 174990 09.11.2022-й		
5.3. Экспертизы	"Иштихон Дурдгор" оилавий корхона		
6. Генеральный подрядчик	Фонд «Развития систем водоснабжения и канализации» при Минфине Рз		
7. Источник финансирования	2022-й		
8. Срок начала и окончания строительства	По ПСД		
Основные показатели строики:	Мощность (в соответ-елниницах измерения)	7,97 км I объект	Остаток на 1.01.2022 г.
	Остаток на 1.01.2023 г.		

Прогноз на 2022 год в соответствии с согласованным с МЭС и МФ адресным списком	Мощность (в соответ-елниницах измерения)	1559,11	1559,11
	Основные фонды	1559,11	1559,11
В договорных ценах (млн.сум)	Капитальные вложения	1519,11	1519,11
	Строительно-монтажные работы	1519,11	1519,11
В том числе по кварталам:	Оборудование, инвентар	129,96	129,96
	Прочие работы и услуги	119,96	119,96
Итого	30,00	30,00	30,00

Раздел II. Поквартальная разбивка прогноза на 2022 год. (в текущих ценах, млн.сум)	Мощность (в соответ-елниницах измерения)	0	0
	Основные фонды	0	0
Всего на год	Капитальные вложения	1483,15	1483,15
	Строительно-монтажные работы	1483,15	1483,15
в том числе по кварталам:	Оборудование, инвентар	0,00	0,00
	Прочие работы и услуги	10,00	10,00
Итого	30,000	30,000	30,000

УП «Инжиниринговая компания по строительству объектов водоснабжения и канализации» терпиторальное управление по Самаркандской области объектов водоснабжения и канализации» Рес. Уз.
АО «Узэвтаъминот» Рес. Уз.

Подпись: "Иштихон Дурдгор" оилавий корхона



М.Товбоев

**ПОЛИС № F/18-4/231
СТРАХОВАНИЕ СТРОИТЕЛЬНО МОНТАЖНЫХ РИСКОВ**

СПАО СК «EUROASIA INSURANCE» на основании Анкеты-заявления Страхователя и согласно Договору № F/18-4/231 от 17.11.2022 года по страхованию строительно-монтажных рисков предоставляет страховую защиту Страхователю при проведении строительно-монтажных работ на месте страхования по Договору подряда.

1. Страхователь	"ISHTIXON DURGOR" OK
2. Адрес Страхователя	Узбекистан, Самаркандская область Иштиханский район ул. А.Навоий 6
3. Заказчик	"O'ZSUVTA MINOT" AKSIYADORLIK JAMIYATI "SUV TA MINOT VA O
4. Адрес Заказчика	Узбекистан, г. Ташкент, Юнусабадский район, КО'КСАРОУ МАУДОНИ, 1 "А"-УЙ
5. Договор подряда	№ 37/22 от «» ноября 2022 года
6. Страховая сумма	911 463 468 Сум -
- по материальному ущербу	911 463 468 Сум
- по гражданской ответственности	
7. Страховая премия	1 820 000,00 Сум (Один миллион восемьсот двадцать тысяч сумов 00 тиингов)
8. Место страхования	Иштихон тумани Дамарик МФИ Дамарик кишлоги худудлида ичимлик сувви тизимларини куриш объекти
9. Объект страхования	Иштихон тумани Дамарик МФИ Дамарик кишлоги худудлида ичимлик сувви тизимларини куриш объекти
10. Адрес объекта страхования	Самарканд вилояти Ластартом тумани
11. Страховые риски	строительно-монтажных рисков
12. Период страхования	с 17.11.2022 г. по 16.11.2023 г. (обе даты включительно)

Обязательства СПАО СК «EUROASIA INSURANCE» по выплате страхового возмещения вступают в силу с 17.11.2022 г. Действуют по 16.11.2023 г.

За Страховщика:

Директор филиала Самаркандского областного филиала



Ташматов Н. А.

0215397

100017, Республика Узбекистан, г.Ташкент, Юнусабадский район,
ул.Абдулла Кадыри, дом 3-А
Телефоны: (78) 150-26-80/81/82, Call center 1147
info@eai.uz / www.eai.uz





"ТАСЛИҚЛАЙМАН"

С. Сафарьяров
2022 й.

"Сув таяминоти ва оқова сув объектлари қурилиши бўйича инжиниринг" компанияси "УК ва унинг хулуғи бошқармалари буюртмачилигида
ичимлик ва оқова сув объектларини қуриш ва реконструкция қилиш ишларининг
МАНБИЛИ РЎЙХАТИ

"Сув таяминоти ва каналлизация тизимларини ривожлантириш" жамғармаси ҳисобидан 2022 йилда
ичимлик ва оқова сув объектлари қурилиши бўйича инжиниринг" компанияси "УК ва унинг хулуғи бошқармалари буюртмачилигида
МАНБИЛИ РЎЙХАТИ
(ВМ Реконструкция 2022 йил 14 февралдаги 19-сонда баёни ва ВМ Реконструкция 2022 йил 15 мартдаги 40-сонда баёни)
02.11.2022 йили қилиб берилган маълумоти рўйхатлар ўрнига

№	Объектлар номи ва маълумоти	Қурилиш босқичини ва фондацияни қуришнинг тарихини	Давлат қўшничи (кв)	Объектнинг умумий қиймати (инертликка эгасиз), жумладан, буюртмачи билан ҳақиқатлари	01.01.22 й. ҳолатига эришган объект қиймати (қиймет) жумладан, буюртмачи билан ҳақиқатлари	01.01.22 й. ҳолатига эришган объектнинг қиймати (қиймет) жумладан, буюртмачи билан ҳақиқатлари	01.01.22 й. ҳолатига эришган объектнинг қиймати (қиймет) жумладан, буюртмачи билан ҳақиқатлари	2022 йил учун қилинган қўйилмавлар дивитти			2022 йилда фондациянинг ҳолати			01.01.23 й. ҳолатига эришган объектнинг қиймати (қиймет) жумладан, буюртмачи билан ҳақиқатлари	01.01.23 й. ҳолатига эришган объектнинг қиймати (қиймет) жумладан, буюртмачи билан ҳақиқатлари	Экспортчи қўйилмавларнинг қиймати (қиймет) жумладан, буюртмачи билан ҳақиқатлари	Тендер (қамқон)лар қўйилмавларнинг қиймати (қиймет) жумладан, буюртмачи билан ҳақиқатлари	Қурилиш тизимлари
								Жами қиймати	Қурилиш қиймати	Жами қиймати	Қурилиш қиймати	Жами қиймати	Қурилиш қиймати					
1	Аюларде турмини "Ок огини" ОФИ сув тармоқларини ва НРС-37 ишловистини реконструкция қилиш (1-босқич)	2021-2022 й	7,9 км 1 объект	3 733,831	458,991	458,991	643,631	257,498	256,498	1,000	7,9 км 1 объект	3 733,83	386,13	30,50	№1742 04.02.2021й	№407 14.04.2021й	"Темпир-Бетон" МЧЖ	
2	Нурце шаҳри "Ботаника боғи" МФЙ хулуғида ичимлик сув тармоқларини реконструкция қилиш	2021-2022 й	1,24 км	440,193	88,453	88,453	120,933	79,666	79,084	0,582	1,24 км	440,19	41,27	30,50	№16992 30.07.2021й	№4284 07.09.2021й	"ТЕКНО-ПРОМ UNIVERSAL" МЧЖ	
3	Нурце шаҳри "Чимбой гузор" МФЙ хулуғида ичимлик сув тармоқларини янгилади қуриш	2021-2022 й	19,51 км	4 033,486	424,776	424,776	424,776	42,871	41,871	1,000	19,51 км	4 033,49	381,90	2,43	№17306 04.08.2021й	№4392 10.09.2021й	"ТАУХУН УЎЛ ҚУРИЛШ" МЧЖ	
4	Элиқалла турминиди "Авқалча" дарёқоғлак ёғруғини ичимлик сув тармоқлари билан таяминлаш объекти	2021-2022 й	1 объект	956,464	39,494	39,494	127,000	35,600	35,050	0,550	1 объект	956,46	91,40	91,40	№22955 30.10.2021й	№5823 22.11.2021й	"Хива қурилиш компания" ХК	
5	Жазирақ вилояти		4,3 км 2 объект	1 408,727	1 491	1 343,278	940,742	806,563	805,072	1,491	4,3 км 2 объект	1 408,73	134,18					
5	Бақал турмини "Нова" турқам қишлоғини ичимлик суви билан таяминлаш	2021-2022 й	2,3 км 1 объект	346,154	322,378	322,378	225,852	193,677	193,053	0,624	2,3 км 1 объект	346,15	32,18	32,18	№ 21009 30.10.2021й	№ 5444 30.11.2021й	"УЗ ПНО БУИДИНГ" МЧЖ	
6	Бақал турмини "Уралоччи" эҳтиром қишлоғини ичимлик суви билан таяминлаш	2021-2022 й	2,0 км 1 объект	1 062,572	1 020,899	1 020,899	714,889	612,886	612,019	0,867	2,0 км 1 объект	1 062,57	102,00	102,00	№ 21559 30.10.2021й	№ 5551 30.11.2021й	"МЕКРАНГЕЗ В-2002" МЧЖ	
	Қашқадар вилояти		27,96 км 1 объект	4 874,681	493,171	493,171	912,711	302,297	300,297	2,000	27,96 км 1 объект	4 874,68	610,41	64,29				

№	Объектлар номи ва манзили	Қурилиш босқичи ва фидаланган тур	Даврама кўчаси (км)	Объектнинг умумий қиймати (шартнома жиссага) жумладан буюртмачи бониса ҳақиқатлари	01.01.22 й. ҳолатда объект қолдиқ қиймати, буюртмачи бониса ҳақиқатлари	01.01.22 й. индустриал фирма ўтуричи объектнинг қиймати (сўзга харажатлар билан) қолдиқ қиймати, буюртмачи бониса ҳақиқатлари	01.01.22 й. ҳолатда объектнинг қиймати (сўзга харажатлар билан) қолдиқ қиймати, буюртмачи бониса ҳақиқатлари	2022 йил учун қийматли қўйимлар ил		2022 йилда фидаланган таъминотлар			01.01.23 й. ҳолатда индустриал фирма ўтуричи объектнинг қиймати (сўзга харажатлар билан) қолдиқ қиймати, буюртмачи бониса ҳақиқатлари		01.01.23 й. ҳолатда индустриал фирма ўтуричи объектнинг қиймати (сўзга харажатлар билан) қолдиқ қиймати, буюртмачи бониса ҳақиқатлари		Экспортга хизмат расми на солиқи	Тексир (таъминот) қилинган бўлиши билан расми на солиқи	20
								Жами қийматли қўйимлар	Қурилиш - монтаж ишлари	Жисса	Жами қийматли қўйимлар	Қурилиш - монтаж ишлари	Жисса	Жами қийматли қўйимлар	Қурилиш - монтаж ишлари	Жисса			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
14	Ожарде тумани Дахбет МФЙда жойлашган Топкент давлат Агпроф Университети Самарқанд филиали ташқи этилиши мунсабабига билан оқома оқома суъ иншооти ва оқома тармоғи тортиш	2021-2022 йй	1,3 км объект	2 258,670	1 423,850	1 423,850	1 500,180	1 252,910	1 248,910	4 000	1,3 км объект	2 258,670	247,270	05.10.2021 й №20737	43-сон буйруқ				"SAYIN SUV INSHOOTLARI" MCHJ OQ
15	Иштигон тумани Байтуби МФЙ Питов қишлоғида суъ иншооти ва суъ тармоғи қуриш	2021-2022 йй	3,5 км объект	1 216,772	652,602	652,602	705,792	565,070	563,970	1,100	3,5 км объект	1 216,772	140,72	14.12.2021 й №27035	43-сон буйруқ			"SAYIN SUV INSHOOTLARI" MCHJ OQ	
16	Иштигон тумани "Дамарик" МФЙ Дамарик қишлоғида ҳудудда қийматли суъ тармоғини қуриш	2022-2023 йй	7,97 км объект	1 678,502	1 678,502	1 678,502	1 678,502	1 483,151	1 443,151	40 000	7,97 км объект	1 678,502	193,35	№6555 25.10.2022 й	№174990 09.11.2022 й			ISHTIXON DURLADGOR	
	Суъ жумладан ДКС:			159,396	159,396	159,396	159,396	-122,088	✓	30 000	декабрь		24,87						
	Самарқанд вилояти (объектнинг 95% гаъча тулов учун)							2 452,238	2 452,238										
1	М.Улугбек кўчасидан А.Навоий кўчаси бўйлаб суъ қурулиши амалга ошириш							64,692	64,692										"Самарқанд суъ қурилиш таъмирлари" МЧЖ
2	Шохи Эмида ва Тошкент кўчалари "У.У.Журагулов кўчасидан-М37а а/кўчилига (Улугбек обсерваториясига) бўйлаб Д-1000 мкмга суъ қурулиши амалга ошириш							968,349	968,349										"Самарқанд суъ қурилиш таъмирлари" МЧЖ
3	Ал Вухорий кўчасидан Давобит кўчаси бўйлаб Рушдиёй кўчасига Д-200 мкмга бўйлаб суъ тармоғини амалга ошириш							60,507	60,507										"Самарқанд суъ қурилиш таъмирлари" МЧЖ
4	Рушдиёй кўчасидан Давобит кўчаси бўйлаб Мотрида маҳалласига суъ тармоғи тортиш							227,545	227,545										"Самарқанд суъ қурилиш таъмирлари" МЧЖ
5	У.У.Журагулов кўчасидан С.Айнинг кўчаси бўйлаб суъ тармоғини амалга ошириш							177,216	177,216										"Самарқанд суъ қурилиш таъмирлари" МЧЖ
6	С.Айнинг кўчасидан Пенжикент тўқчаси бўйлаб А.Жомий кўчасига Д-150 суъ тармоғини амалга ошириш							22,826	22,826										"Самарқанд суъ қурилиш таъмирлари" МЧЖ
7	Пенжикент кўчаси бўйлаб Бухоро кўчасига Д-200 суъ тармоғини амалга ошириш							18,033	18,033										"Самарқанд суъ қурилиш таъмирлари" МЧЖ

№	Объектлар номи ва манзили	Қурилиш босқичи ва фойдаланишга киришиши били	Давла қурилиш (км)	Объектнинг умумий қиймати (партия ва жисса) жўрқалган, буюртмачи бошқа харajatлар	01.01.22 й. қолдиқ	01.01.22 й. қолдиқ	01.01.22 й. қолдиқ	01.01.22 й. қолдиқ	2022 йил учун қилган қўшимчалар			2022 йилда фойдаланишга топширилган		01.01.23 й. қолдиқ	01.01.23 й. қолдиқ	Эмгакчи рақами ва сана	Тошра (ташра)лар иттифоқи бўлиб баёан қилинган ва сана	Қурилиш лўғати таъкилот номи
									01.01.22 й. қолдиқ	01.01.22 й. қолдиқ	01.01.22 й. қолдиқ	Жами қилган қўшимчалар	Жами қилган қўшимчалар					
24	Оқиларон тумани «Шоҳманзор» маҳалласи Хулудига чинчилик суви тармоқларини тортиш	2021-2022 й	9,450 км	4 165,990 275,760	1 264,307 224,410	1 264,307 224,410	1 600,690 224,410	937,910 935,910	937,910	935,910	2,000	1,000	4165,99	662,78 222,41	№14/01-6-1/6139 08.07.2021 й.	“Узбекистон Республикаси” АЖИИТ 2021 йил 30 июль 91-йи-сон буйруқ		“АХИЛЛІК SARI” МТДЖ
25	Дигнарик тумани маркази янгилик суи таъмиқларини қуриш ва реконструкция қилиш	2021-2022 й	25,1 км 1 объект	9 963,350	677,539	677,539	1 364,129	404,146	403,146	1,000		25,1 км 1 объект	9 963,35	959,98	№170-06-2020/2 02.07.20 й.	Бил № 4/184 24.09.20 й.		“Хиваферганақурилиш таъкилот” МТДЖ
				404,210	5,789	5,789	5,789	404,146	403,146	1,000		25,1 км 1 объект	4,79	4,79				



“Келишида”
Ўзбекистон Республикаси
Бўйича Иқтисодиёт, Коньялик ва
Директор
Х.Мирзова
2022 йил 11

“Келишида”
Ўзбекистон Республикаси
Модия вазирлиги
2022 йил 11

“Келишида”
Ўзбекистон Республикаси
Иқтисодий таъкилот ва камбағалликни
қисқартуриш вазирлиги
2022 йил 15.11

Handwritten signature or mark at the top left.

Handwritten signature or mark in the middle left.